

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.D.Dehqonov</b>	
Bolalarni qo'g'irchoq teatri orqali tarbiyalashning o'ziga xos ahamiyati.....	194
<b>X.M.Xoshimxonov</b>	
Xoja Ahmad Yassaviyning irfoniy – falsafiy qarashlari.....	198
<b>M.A.Muxiddinova</b>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining jamoaviy ijodiy, kasbiy va texnik tayyorgarligining pedagogik xususiyatlari.....	204
<b>Y.A.Saidova</b>	
O'smirlarda ishonch hissi va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	208
<b>Sh.A.Mamajonov, X.M.Jo'rayev</b>	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarida ekologik kompetentlikni shakllantirish.....	213
<b>M.M.Azizov</b>	
Skandinavcha yurish sport-sog'lomlashtrish dasturlarini optimallashtirishning asosiy vositasi sifatida .....	218
<b>D.V.Vohidova</b>	
Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy ustoz-shogird sifatlari haqida .....	223
<b>X.X.Raxmatova</b>	
Murosa falsafasiga doir tushunchalarining tasavvufiy mohiyati .....	227
<b>X.X.Raxmatova</b>	
Ma'rifatli jamiyat qurishda Xoja Ahror Valiy murosaga oid qarashlarining ahamiyati.....	232
<b>O.L.Berdiyev</b>	
Abu Ali Ibn Sino va Nosiruddin Tusiyning falsafiy qarashlari .....	237
<b>D.D.G'ulomov</b>	
Abdulla Qodiriy ijodida retrospektiv syujet ("Mehrobdan chayon" romani misolida) .....	243
<b>D.I.Gulamova</b>	
Interpretation of euphemisms used in social life .....	246
<b>M.K.Juliyev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov</b>	
O'zbekistonda tuproq eroziyasining sabablari va eroziyaga tasir qiluvchi omillar .....	250
<b>B.O.Komilova, M.R.Toxirova</b>	
Yuqori sinf o'quvchilarining aqliy faoliyatiga jismoniy mashqlarning ta'siri .....	254
<b>B.O.Komilova</b>	
Ichak turli bo'limlaridagi fermentlar faolligining ayrim gormonlar ta'sirida o'zgarishi.....	257
<b>Z.M.Otaxonova, J.M.Otajonov</b>	
Talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari .....	260
<b>A.I.Mirzoyev, M.A.Mamasoliyeva, J.M.Turdaliyev, B.D.Raxmonov, Sh.Sh.Turg'unboyev, I.A.Xudoynazarov</b>	
Navoiy viloyati sho'rangan tuproq tarkibidagi tuzlarni yuvish uchun kimyoviy melioratsiya usulidan foydalanish istiqbollari .....	263
<b>Sh.K.Abduraxmonov</b>	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lif kursantlarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish metodikasi va pedagogik shartlari .....	270
<b>U.R.Radjapov, K.B.Xakimjanova</b>	
Maktabgacha ta'lif muassasi tarbiyalanuvchilarini harakatli o'yinlar orqali bolalar psixologiyasini va nutqini rivojlantirish usulublari .....	275
<b>O.Ortiqov</b>	
Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar).....	279
<b>A.R.Jo'rayev</b>	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining lingvistik xususiyatlari.....	283
<b>M.C.Курбоналиева</b>	
Муаррифии чанд тазкираи умумии шоирони асри xviii .....	286
<b>X.A.Lutfullayeva</b>	
Problems of developing self-educational skills of students .....	293
<b>Р.Абдуллаев</b>	
Татаббуъоти Амир Муиззӣ ба қасидаҳои Унсурии Балхӣ .....	298
<b>XOTIRA</b>	
<b>Ustoz Muxammadjon Qoraboyevning yorqin xotirasi .....</b>	304

**MINNATDORCHILIK BILDIRISH NUTQIY JANRINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI****ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧЕВОГО ЖАНРА БЛАГОДАРНОСТИ****LINGUISTIC FEATURES OF THE SPEECH GENRE “GRATITUDE”****Jo‘rayev Arabboy Rahmaddin o‘g‘li<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti tadqiqotchisi**Annotatsiya**

*Maqolada minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining semantik maydonidagi so‘zlovchining mammunligi ifodasi shaxsiy va jamoaviy usulda kimnidir e’tirof etish, maqtash, tashakkur aytish, rahmat aytish, kimningdir ko’rsatgan yordamlari uchun o’zini qarzdar hisoblash, duo qilish, mammuniyat bilan tilga olish, ta’zim qilish, moddiy va moddiy bo’lmagan ya’ni, ma’naviy rag’batlantirish kabilarda ko’rinishi haqida gap boradi.*

**Аннотация**

*В данной статье рассматриваются выражения удовлетворенности говорящего в смысловом поле речевого жанра выражения благодарности личным и коллективным способом, такие как признание кого-либо, похвала, выражение благодарности, благодарность, признание себя обязанным чьей-либо помощи, благословение, приветственное упоминание, поклон, материальное и нематериальное, то есть моральное поддержка.*

**Abstract**

*This article is about the expressions of satisfaction of the speaker in the semantic field of the speech genre of expressing gratitude in a personal and collective way, such as recognition of someone, praise, expression of gratitude, gratitude, recognition of oneself obliged to someone’s help, blessing, welcoming mention, bow, material and immaterial support, that is, moral encouragement.*

**Kalit so‘zlar:** ma’naviy qarzdorlik, minnatdorlik maktubi, minnatdorchilik xati, tilak, moddiy va moddiy bo’lmagan rahbatlantirish.

**Ключевые слова:** духовное обязательство, благодарственное письмо, благодарственное письмо, желание, материальная и нематериальная поддержка.

**Key words:** spiritual commitment, thank-you letter, thank-you letter, desire, material and non-material support.

**KIRISH**

So‘nggi yillarda tilshunoslar e’tiborining til va nutq sistemasidagi nutqqa qaratilishi nutqiy janrlarni chuqur o‘rganishga asos bo’ldi. Nutqiy janrlarning diskurs tiplari doirasida o‘rganilishi uning diskursiv xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bugungi kunda jahon tilshunosligida ta’limga oid diskurslarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish masalasi ommavylashmoqda. Ta’limga oid diskurs tiplari orasida o‘quv adabiyotlariga oid nutqiy janrlar o‘ziga xos lingvistik butunlik sifatida boshqa nutqiy janrlardan ajralib turadi. Bularga o‘quv adabiyotlari uchun deyarli umumiy bo’lgan qismlar, xususan, kirish, so‘z boshi, muqaddima, bag’ishlov, dastxat, mundarija, xotima, adabiyotlar ro‘yxati kabilarni kiritish mumkin.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tilshunoslikka doir ilmiy adabiyotlarda o‘quv diskursidagi minnatdorchilik bildirishning nutqiy janr sifatida tadqiq etish masalasi arab, urdu, ingliz tillari nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan[1].

Ushbu mualliflarning tadqiqotlarida minnatdorchilik bildirish nutqiy janri, asosan, diniy, tarixiy, lingvomadaniy, funksional-pragmatik kabi bir qator aspektlarda tekshirilgan, lekin ingliz va o‘zbek tillaridagi minnatdorchilik bildirish nutqiy janrini chog’ishtirish asosida o‘rganilmagan. Ayniqsa, minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining o‘quv uslubiy xususiyatlari chog’ishtirma tadqiq etilmagan. Mayjud manbalarda minnatdorchilik bildirish nutqiy janrini ingliz va o‘zbek tillarida chog’ishtirib o‘rganishga bag’ishlangan lingvistik tadqiqotlarning mavjud emasligi mazkur ishning yangi tadqiqot ekanligini ko’rsatadi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMALAR**

Minnatdorchilik bildirishning semantik maydonidagi so‘zlovchining mammunligi ifodasi shaxsiy va jamoaviy usulda kimnidir e’tirof etish, maqtash, tashakkur aytish, rahmat aytish, kimningdir ko’rsatgan yordamlari uchun o’zini qarzdar hisoblash, duo qilish, mammuniyat bilan tilga olish, ta’zim qilish, moddiy va moddiy bo’lmagan ya’ni, ma’naviy rag’batlantirish kabilarda ko’rinadi. Minnatdorchilik bildirishning semantik maydonini shartli ravishda quyidagicha belgilash mumkin:

Minnatdorchilik bildirishning semantik maydonidagi so'zlovchining mammunligi ifodasi shaxsiy va jamoaviy usulda kimnidir e'tirof etish, maqtash, tashakkur aytish, rahmat aytish, kimmingdir ko'rsatgan yordamlari uchun o'zini qarzdor hisoblash, duo qilish, mammuniyat bilan tilga olish, ta'zim qilish, moddiy va moddiy bo'Imagan ya'ni, ma'naviy rag'batlantirish kabilarda ko'rindi. Minnatdorchilik bildirishning semantik maydonini shartli ravishda quyidagicha belgilash mumkin:

Masalan:

1) Tinglovchining ko'rsatgan xizmatidagi narsa-buyum, predmetni yaxshi taraflarini e'tirof etish, maqtash va buning uchun minnatdormon ekanligini rahmat, tashakkur, minnatdormon kabi so'zlar orqali izhor qilish:

-Og'riq qoldimi? – dedi menga qaramay.

- Rahmat, doringiz yaxshi ekan .

2) kishilarni mammuniyat bilan tilga olish va ta'zim qilish:

"Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay" nomli rukndan parcha :

Qiynalgan vaqtlarimda qo'ng'iroq qilaman va u kishi yaxshi gaplar bilan ko'nglimni ko'taradi. Qo'limga qalam olib maqola yozishimdan maqsad, menga va nogiron bolalarga o'z yordamini ayamayotgan insonlarga tashakkur aytmoqchiman. Siz bolajonlarni qo'llasangiz, Olloh sizni qo'llaydi. Hammangizga boshim yerga tekkuncha ta'zim qilaman va rahmat demoqchiman.

3) kishilarni mammuniyat bilan tilga olish va duo qilish:

Masalan, a) Ushbu risolani yozishda beminnat yordam bergan ustozlarimizga Alloh Taolodan ajru mukofotlar tilaymiz . Alloh Taolo hammamizni oqibatimizni xayrli qilsin. Omin.

B) U-chi nonni oldiyu, xaltasiga joyladi , "Minnatdormon ona!" deb shirin duo ayladi (Qaytar dunyo she'ridan parcha).

5) so'zlovchining tinglovchi oldida o'zini ma'naviy qarzdor his qilish:

*"Ulug' ustozga ehtirom" dan parcha : Bir narsani alohida uqtirmoqchiman. O'tgan asrda o'zbek tilshunosligi fani ko'p hollarda fanga begona ayrim "tilshunoslari"ning xizmatlari o'laroq ayirmachilik kayfiyatida faoliyat ko'rsatdi. Ammo men tilshunoslikning bugungi iqlimidan juda ham mammunman. Bunda fanimiz donishmand darg'alarining roli katta va ulardan behad minnatdormon bo'lishimiz kerak. Bu borada Nizomiddin Mahmudov kabi ulug' ustozlarimiz oldida hamisha qarzdormiz. Qarzdorlik hissi esa zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Buni unutmasligimiz kerak.*

6) shaxsiy va jamoaviy shaklda moddiy va moddiy bo'Imagan rag'batlantirish: Ushbu turda jamoa tarkibida minnatdorchilik bildirish, so'zlovchi tomonidan kimnidir qilgan ishlarini namuna sifatida ko'rsatib, jamoa a'zolari ichida maqtash, og'zaki minnatdorchilik bildirish yoki rasmiy tarzda boshqa tashkilot boshliqlari va a'zolariga minnatdorchilik xati yuborish, ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy va norasmiy shaklda minnatdorchilik izhor qilish, minnatdorchilik maktubi/xatini yo'llash, jamoa ichida minnatdorchilik ramzi sifatida narsa-buyum, predmetlarni taqdim qilish kabilalar kuzatiladi. Rasmiy shakldagi minnatdorchilik bildirish moddiy bo'Imagan rag'batlantirish sanaladi . Moddiy shakldagi minnatdorchilik bildirishda taqdim etiladigan predmetlar barcha turdag'i so'zlovchi va tinglovchi uchun qadr-qimmatga ega bo'lgan, o'sha jamiyat va jamoa uchun semiotik mazmunga ega bo'lgan har qanday predmet, narsa, buyum, va hattoki, jonivorlar bo'lishi ham mumkin. Minnatdorchilik bildirish nutqiy janridagi barcha narsa-buyumlar, predmetlar minnatdorchilik bildirish nutqiy janrinining lingvistik atributlari sanaladi.

Minnatdorchilik bildirish kimgadir yaxshilik qilish natijasi bo'lib, yaxshilik yo'naltirilgan inson tomonidan mammuniyat bilan turli vaziyatlarda yordam ko'rsatgan kishining xizmatlarini e'tirof etish, baholash, qadrlash uchun aytishi kerak bo'lgan jumla, shuningdek, ushbu kishining yordamlarini shaxsan va jamoaviy tan olish, rag'batlantirish, taqdirlash nutqiy harakatlarini ham o'z ichiga oladi.

So'zlovchi tomonidan minnatdorchilikning shaxsan va jamoa nomidan bildirilishi til tizimida minnatdorchilik bildirishning individual va jamoaviy xususiyatga ega ekanligidan darak beradi. Minnatdorchilik bildirish jamoaviylik shaklida ifodalanganda tantanali tus oladi va taqdirlash marosimi shaklida ham o'tkazilishi mumkin. Masalan, taqdirlash marosimlarida kishilar o'zlariga yaqindan yordam bergan kishilarni o'z nutqlarida e'tirof etishlari orqali ularga o'z tashakkurini aytib, so'zlovchi minnatdorchilik bildirish orqali ismlari tilga olingan shaxslarning qo'shgan hissasini e'tirof etish bilan birga batafsil bayonini ham keltiradi.

## ILMIY AXBOROT

Shuni aytish kerakki, minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining o'ziga xos tashkiliy kompozitsion va matniy kompozitsion tuzilishi mavjud, tashkiliy kompozitsion tuzilishi orqali uning boshqa nutqiy janrlar tarkibidagi o'rnnini va ular bilan aloqasini o'rganish mumkin, matniy kompozitsion tuzilishini o'rganish orqali uning alohida nutqiy janr sifatidagi boshqa nutqiy janrlardan farqli lingvistik xususiyatlarini tadqiq qilishi imkonli tug'iladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi dan parcha:

.... *Bugun ushbu muhtasham zalda hurmatli deputat va senator ayollarimizni ko'rib turganimdan xursandman. Mamlakatimizda qonunchilikni mustahkamlash, qabul qilinayotgan qonunlarimizning adolatlari va ta'sirchan bo'lishida ularning ham albatta hissasi katta. Buning uchun xalq vakillari bo'lgan bu ayollarimizga chin qalbdan minnatdorlik bildiramiz.*

Rasmiy murakkab nutq o'z tarkibiga, salomlashuv, tabrik, maqtov, minnatdorchilik bildirish, tilak, duo kabi bir qator nutqiy janrlarni olar ekan, minnatdorchilik bildirish shu murakkab tarkibdagi bir qismidir.

Ushbu murakkab nutq tarkibida minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining alohida matniy tuzilishi 3 bosqichlidir, ya'ni *Bugun ushbu muhtasham zalda hurmatli deputat va senator ayollarimizni ko'rib turganimdan xursandman jumlesi xursandchilikni, mamlakatimizda qonunchilikni mustahkamlash, qabul qilinayotgan qonunlarimizning adolatlari va ta'sirchan bo'lishida ularning ham albatta hissasi katta jumlesi esa ta'kidni, Buning uchun xalq vakillari bo'lgan bu ayollarimizga chin qalbdan minnatdorlik bildiramiz* jumlesi esa minnatdorchilik bildirishni anglatib, xursandchilik+ta'kid+minnatdorchilik nutqiy aktlari ketma-ketligi minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining matniy kompozitsion tuzilishini tashkil qilmoqda.

**XULOSA**

Demak, minnatdorchilik bildirish nutqiy janri makromatn shaklida ifoda etilganda, minnatdorchilik bildirish muayyan murakkab nutqning bir qismi bo'lib, ushbu qismda minnatdorchilik bildirish bir necha nutqiy aktlardan tashkil topgan bosqichli makromatn yoki kichik mikromatn shaklida ifoda qilinadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Muhammad Ahmad, Ali Raza Siddiqu, Muhammad Mushtaq. Genre Analysis of Acknowledgement Texts by Pakistani Master Level Theses Writers. [Linguistic Forum - A Journal of Linguistics](https://linguisticforum.com/journal-of-linguistics/);
2. Zhao,M.,& Jiang, Y. (2010). Dissertation acknowledgement:Generic structure and linguistic features.Chinese Journal of Applied Linguistics, 33(1), 94-109;
3. Williams, M. (2018). Thesis acknowledgement & dissertation dedication help.Retrieved February 8, 2019 from <https://www.essaytown.com/writing/thesis-acknowledgment-dissertation-dedication>; ang, W. (2012).
4. Comparison of gratitude across context variations: A generic analysis of dissertation acknowledgements written by Taiwanese authors in EFL and ESL contexts.International Journal of Applied Linguistics and English Literature,1(5), 130-146. doi: <http://dx.doi.org/10.7575/ijalel.v.1n.5p.130>;
5. Ahmad, M., Ismail, M. K. A.,& Aqeel, M. (2018). Genre based analysis of acknowledgement texts written by Pakistani writers.European Online Journal of Natural and Social Sciences,7(3), 594-604; Al-Ali, M. N. (2006).
6. Conveying academic and social identity in graduate dissertation acknowledgments. Fifth International Conference of European Association of Language for Specific Purposes(pp. 35-42);
7. Zaragoza, Spain.Al-Ali, M. N. (2010). Generic patterns and socio-cultural resources in acknowledgements accompanying Arabic PhD dissertations. Pragmatics, 20(1), 1-26.doi: <https://doi.org/10.1075/prag.20.1.01ali>;
8. Behnam, B., & Golpour, F. (2014). A genre analysis of English and Iranian research articles abstracts in Journal of Anthropological Research, 43(1), 63-84.doi:<https://doi.org/10.1086/jar.43.1.3630467>; Caesar, T. (1995).
9. On acknowledgements. New Orleans Review, 19(1), 85-94; Cheng, S. W. (2012). A contrastive study of master thesis acknowledgements by Taiwanese and North American students. Open Journal of Modern Linguistics, 2(1), 8-17;
10. Cheng, W.,& Kuo,C. (2011). A pragmatics analysis of MA thesis acknowledgements. Asian ESP Journal, 7(3), 29-58; Cronin, B. (1995).
11. The scholar's courtesy: The role of acknowledgement in the primary communication process. London; Taylor Graham.Dunams, A. (2010).
12. What is an acknowledgement page and why your book needs one. Retrieved February 11, 2018 from<http://www.aliciadunams.com/what-is-an-acknowledgement-page-and-why-your-book-needs-one/>; Farukh, A. (2005).
13. Genre analysis of acknowledgement texts across disciplines(unpublished master thesis). Department of English, Bahauddin Zakariya University, Multan, Pakistan; Giannoni, D. S. (2002).
14. Words of gratitude: A contrastive study of acknowledgement texts in English and Italian research articles. Applied Linguistics, 23(1), 1-31.doi: <https://doi.org/10.1093/applin/23.1.1>; Greenleaf. (2018).
15. How to write an acknowledgement page.Retrieved February 11, 2018 from<https://greenleafbookgroup.com/learning-center/book-creation/how-to-write-an-acknowledgementpage/>; Genre Analysis of Acknowledgement Texts. [www.linguisticforum.com6Linguistic Forum 1\(1\), 2019](https://linguisticforum.com6Linguistic Forum 1(1), 2019).